



**GAYBULLA SALOMOV AND UZBEK SCHOOL OF
TRANSLATION**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ
ХОРИЖИЙ ТИЛ ВА АДАБИЁТИ КАФЕДРАСИ



**GAYBULLA SALOMOV AND UZBEK SCHOOL OF
TRANSLATION**

ИЛМИЙ МАҚОЛАЛАР ТҮПЛАМИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

ХОРИЖИЙ ТИЛ ВА АДАБИЁТИ КАФЕДРАСИ



**GAYBULLA SALOMOV AND UZBEK SCHOOL OF
TRANSLATION**

ИЛМИЙ МАҚОЛАЛАР ТҮПЛАМИ

(13 декабрь 2022 йил)

I

ҒАЙБУЛЛА САЛОМОВ ВА ЎЗБЕК ТАРЖИМА МАКТАБИ

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G‘. Salomov Til va tarjima. – Fan nashriyoti, Toshkent, 1996, 21-b..
2. J.W.Goethe. “Die Leiden des jungen Werthers”, Leningrad, «Prosveteniye», Leningradskoye otdeleniye, 1975.
3. I.V.Gyote. Yosh Verterning iztiroblari. Tarjimon Ya.Egamova. – «Yangi asr avlodi» nashriyoti, Toshkent, 2018.
4. Hauger, Brigitte: Individualismus und aufklärerische Kritik. Johann Wolfgang von Goethe: Die Leiden des jungen Werther. Friedrich Nicolai: Freuden des jungen Werthers. Stuttgart: Klett-Verlag, 1987. S. 24.
5. Hein, Edgar: Johann Wolfgang von Goethe. Die Leiden des jungen Werther: Interpretation. 2. Auflage. München: Oldenbourg, 1997. S. 25. [Oldenbourg Interpretationen; Bd. 52].
6. Flemming, Willi: Der Wandel des deutschen Naturgefühls vom 15. zum 18. Jahrhundert. Halle: Niemeyer-Verlag, 1931. S 83-84.
7. Die Parallele Zwischen Werther und die Natur in Goethes "Die Leiden des Jungen Werthers"
8. Essay by [candypants](#), University, Bachelor's, A, January 2006

O'ZBEK TILI IMKONIYATLARI (FE'LNING ANALITIK SHAKLLARI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7481605>

F.K.Nurova

o'qituvchi Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: O'zbek tilining boy imkoniyatlari internet tarjima dasturlarida o'z aksini topmagan. Omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan fe'lning analitik shakllarining internet tarjima dasturlari orqali tarjima qilish jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: fe’llarning analistik shakllari, harakat tarsi, grammatic ma’no, oraliq ma’nolar, internet tarjima dasturlari, frazeologik birikmalar, qo’shma fe’llar.

Dunyoda har bir millatning borligini ko’rsatib turuvchi asosiy vosita bu uning tilidir. Tilning nechog‘li boyligi mazkur millatning yuksak tarixiy taraqqiyoti, ma’naviyatidan dalolat berib turadi.

O‘zbek tili o‘z taraqqiyoti davomida ko’plab tarixiy jarayonlarni, bosqichlarni bosib o’tdi. Tarix chig‘iriqlaridan o‘tgan ona tilimiz o‘z boyligini oshirdiki, lekin yo‘qotgani yo‘q. Tilshunoslarimiz o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeyi borasida ko’plab tajribalar, izlanishlar hamda amaliy ishlar olib borishgan hamda tilimizning qay darajada serqirraligini yetaricha dalillar asosida isbotlashgan. Bu amaliy tajriba Alisher Navoiydan boshlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida birgina yig‘lamoq fe’lining yetti-sakkizta shakli va ulardagi ma’no nozikliklarini sanab, uni fors tili bilan chog‘ishtiradi hamda ularning yig‘ining nozik ma’no darajasiga ko‘ra farqlanishini ta’kidlab o‘tadi: yig‘lamsiramoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, o‘kirmoq, qichqirmoq, hoy-hoy yig‘lamoq. Bu kabi chog‘ishtiruvlar ko‘pgina olimlarning izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Ona tilimizdagi fe’llarning analistik shakllari ham tilimizning serqirraligi namunasi hisoblanadi. Chunki undagi ma’no nozikliklarini biz yaxshi bilgan va tushunadigan ingliz va rus tillarida uchratmaymiz. Ko‘makchi fe’lning -a/-y hamda -(i)b ravishdoshi bilan birika olish imkoniyatlarini hisobga olsak, tilimizda nutqimizni, ayniqsa, so‘zlashuv nutqini go‘zallashtiruvchi 50 ga yaqin fe’lning analistik shakli (harakat tarzi) shakli namoyon bo‘ladi. Shuningdek, nutqda ularning ko‘p ma’nolilik xususiyati ham tahlil jarayonida tilimizning serqirraligini namoyon etadi. Miqdoran ellikka yaqin shaklni qamrab olgan harakat tarzi shakllari, aytilganidek, “tarz” umumiyl grammatic ma’nosini ostida birlashadi. Bu umumiyl muayyan nutqiy qo‘llanishlargacha bir necha oraliq bosqichni bosib o‘tadi. Birinchi bo‘linish ikki a’zoli bo‘ladi: “jarayonlilik” va “qobiliyat”. Ikkinci

bo‘linish “jarayonlilik” oraliq grammatik ma’nosida a’zolar soni uchta: “ish-harakatning boshlanishi”, “ish-harakatning davomiyligi”, “ish-harakatning tugallanganligi”. “Qobiliyat” oraliq ma’nosi “qodirlik” va “sinash”ga bo‘linadi.

O‘z navbatida ikkinchi oraliq ma’nolar yana parchalanadi. Masalan, “ish-harakatning boshlanishi” oraliq ma’nosi “soniyaviylik” va “davomiylik” oraliq bo‘lakchalariga; “ish-harakat davomiyligi” esa “uzluklilik” hamda “uzluksizlik” parchalariga ajraladi. “Ish-harakat tugallanganligi” oraliq ma’nosi “to‘la bajarilish”, “to‘la bajarilmaganlik”, “o‘ziga olish”, “soniyaviylik” oraliq bo‘lakchalariga ega bo‘ladi. “Ish-harakatga qodirlik” oraliq ma’nosi “jismoniy va aqliy faoliyat” hamda “aqliy faoliyat” oraliqlaridan iborat bo‘lsa, unga yondosh qatorda turuvchi “sinash” oraliq ma’nosi “tekshirish”, “sinash”, “tajribadan o‘tkazish”, “harakatni bilish”, “belgilash” hamda “aniqlash” quyi oraliqlariga parchalanadi.

Harakat tarzi shakllarining “tarz” umumiy grammatik ma’nosi asosidagi paradigmagini nutqiy hosilalarda ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, u quyidagicha shakllanadi:

O‘qib ketdi misolida “harakatning to‘satdan boshlanishi” ma’nosi **-b+ket** shakli orqali “ish-harakat boshlanishining soniyaviyligi” oraliq grammatik ma’nosi tiklanadi. O‘qiy boshladi misolida **-y+boshla** shakli orqali “ish-harakat boshlanishi va davom etishi” oraliq ma’nosi yuzaga chiqadi. Yozib turibdi misolida esa “harakatning takror holda davom etishi” **-ib+tur** shakli orqali “ish-harakat davomiyligining uzlukliligi” oraliq ma’nosi ifodalanadi. Kuzata tur misolida **-a+tur** shakli orqali “ish-harakat davomiyligi” oraliq ma’nosi “ish-harakatning uzoq davom etishi”ni ifodalasa, o‘qib yotibdi misolida esa **-ib+yot** shakli orqali “ish-harakat davomiyligining uzluksizligi” oraliq ma’nosi “harakatning muttasil davom etishi” ma’no nozikliklari bilan farqlanadi. Tugab ketdi misolida **-b+ket** shakli orqali “harakatning to‘la yuzaga kelishi” ma’nosi “ish-harakat tugallanganligining to‘la bajarilishi” oraliq grammatik ma’nosini yuzaga chiqaradi. Kelayozdi misolida **-a+yoz** shakli orqali “harakatning bajarilishiga

yaqinlashganlik” ma’nosи “ish-harakat noto‘liq tugallanganligi” oraliq grammatik ma’nosini ifodalaydi. O‘rganib ol misolida “harakatning o‘z manfaatiga yo‘naltirish” ma’nosи **-ib+ol** shakli orqali “ish-harakat tugallanganligini o‘ziga olish” oraliq grammatik ma’nosini yuzaga keltiradi. Cho‘chib tushdi misolida esa **-(i)b+tush** shakli orqali “harakat yoki holatning bir zumda bo‘lib o‘tishi” ma’nosи “ish-harakat tugallanganligining soniyaviyligi” oraliq grammatik ma’nosini yuzaga chiqaradi. O‘qiy oladi misolida **-y+ol** shakli orqali “harakatni bajarish imkoniyatiga egalik” ma’nosи “ish-harakatga qodirlik” oraliq grammatik ma’nosida “jismoniy va aqliy faoliyat”ni ifodalasa, ko‘rsata bildi misolida esa **-a+bil** shakli orqali “harakatni bajarish qobiliyatiga egalik” ma’nosи “ish-harakatga qodirlik” oraliq grammatik ma’nosining faqat “aqliy faoliyat” ko‘rinishini yuzaga chiqaryapti. Shu o‘rinda “ish-harakatga qodirlik” ma’nosini yuzaga chiqaruvchi **-a/y+ol** va **-a/y+bil** shakllari haqida fikr yuritilganda shuni aytish lozimki, **-a/y+ol** shaklini nutqda mazkur ma’noni ifodalashda ishlatish o‘zbek tili me’yorlariga mos kelsa-da, **-a/y+bil** shakli orqali “ish-harakatni bajarishga qodirlik” ma’nosи ifodalanishini “normadan chetlanish” deb hisoblash mumkin. Borib ko‘r misolida **-ib+ko‘r** shakli orqali “harakatni tekshirish yoki tajribadan o‘tkazish” ma’nosining “sinash” oraliq grammatik ma’nosи ifodalansa, sanab boq misolida **-b+boq** shakli orqali “harakatni bilish, belgilash, aniqlash” ma’nosи “ish-harakatni sinash” oraliq grammatik ma’nosini tiklash uchun xizmat qiladi.

Bu kabi tahlillarni uzundan-uzun davom ettirish mumkin. Bu o‘zbek tilining birgina fe’lning analitik shakllarini tasnif qilganda namoyon bo‘ladigan qirrasi hisoblanadi. Analitik shakllarni internet tarjima dasturlarida boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida ma’lum ma’nodagi g‘alizliklarga duch kelinadi, chunki ravishdoshning **-(i)b**, **-(a)y** shakllari bilan hosil bo‘lgan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘silmalari o‘z o‘rnida qo‘shma fe’llar, frazeologik birikmalar bilan omonimlik hosil qiladi. Internet tarjima dasturlari esa mazkur shakllar orasidagi ma’no nozikliklarini farqlay olmaydi. Kompyuter asri tilshunoslaridan esa ana shu

kamchilikni ilmiy jihatdan bartaraf etishdek ulkan vazifa turibdi, zero, bunda tilimizning nozik qirralariga putur yetishining oldi olingan bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ақбаров С. Ўзбек тилида қўшма феъллар: Филол. фан. Номз. дис. – Т., 1946. – 180 б.
2. Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълларда нисбат категорияси. - Т.: Фан, 1992. - 144 б.
3. Гулямова Ш.К. Семантик анализатор учун омонимликни фарқлаш омилларининг айрим масалалари хусусида // —Ўзбекистоннинг умидли ёшлари мавзусидаги 6-сон Республика илмий талабалар, магистрлар ёш тадқиқотчилар ва мустақил изланувчилар учун онлайн конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Тадқиқот, 2021. – Б. 74-76
4. Жўраев Б. . Ҳозирги замон ўзбек тилида кўмакчи феълларнинг қўлланиши ва маъноси // Ўзбек тили грамматикаси ва пунктуацияси масалалари. - Т., 1953. - Б. 255 - 266.
5. Материалы координационного совещания по проблемам глаголного вида и сложноподчиненного предложения в тюркских языках // Вопросы грамматики тюркских языков. 24-27 сент. 1956 г. Алма-Ата, 1958. - С. 45-51.
6. Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. - Қарши: Насаф, 2003. - 147 б.
7. Неъматов Ҳ., Бегматов Э., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1989. - № 6. - Б. 39-43.
8. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. - Т.: Ўқитувчи, 1996. - 47 б
9. Хамроева Ш., Гулямова Ш. Электрон луғатлар – компьютер лексикографияси маҳсули // Давлат тили – ижтимоий тараққиёт ва

миллий юксалиш мезони. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Бухоро, 2020. – Б. 459-465.

10. Шукуров О. Ҳаракат тарзи шакллари парадигмаси: Филол. фан. Номз. дис. – Қарши, 2017. - 1026.

TARJIMANING STILISTIK MUAMMOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7481608>

I.K.O'sarov

O'zMU, Xorijiy til va
adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarjimaning stilistik muammolari haqida so'z boradi. Jumladan, tarjima jarayonida stilistikaning o'rni muhim ekanligi, ma'lum bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima jarayonini olib borishda stilistik vositalar bit tildan boshqa tilga qanday yo'llar bilan amalga oshirilishi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *stilistik muammolar, stilistik ma'no, leksik stilistik vositalar, metafora, metonimiya, kinoya, badiiy asar stili.*

Uslub tilning referensial turlaridan bo'lib, o'ziga xos lug'ati, turg'un birikmali, jumla va sintaktik qurilmalarga ega, boshqa turlardan o'z ichki unsurlari, asosan, ekspressiv xususiyatlari bilan farq qiluvchi lisoniy tafovut qiluvchi lisoniy tizimdir. Muayyan bir uslubdagi unsurlar bilan boshqa uslub elementlaridan farq qilganda ularni aniqlash oson bo'ladi. Aytaylik, masal uslubi, xalq dostonlari uslubi, so'zlashuv uslubi, gazeta tili uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, kitobiy uslub, adabiy uslub, ilmiy uslub, ilmiy-texnikaviy uslub, ijtimoiy-publitsistik uslub, notiqlik uslubi, yozma nutq uslubi, she'riy uslub va h.k. Uslub yozuvchi ijodining uning asarlarida takrorlanib turadigan asosiyligi, tipik g'oyaviy-badiiy xususiyatlari majmuasidir. Bularning barchasi tarjimada o'zining muqobil nusxalariga ega bo'lishi zarur. Birini ikkinchisi bilan o'zgartirib yoki almashtirib bo'lmaydi.

Шарипова М. С.	Кеп коммуникация тұшнұғы баәрлашуунун модели катары	253
Эштүхтарова Б. Б.	Инсон аклий фаолиятини ифодаловчи лексик бирликларнинг лугатларда таржима муаммолари	266

БАДИЙ ТАРЖИМАНИНГ ЛИНГВИСТИК ЖИҲАТЛАРИ

Mamatqulov A.L. Normatov A.A.	Adabiyot soxasida tarjimaning o‘rnii va axamiyati	272
Nazarova M.	“Yosh Verterning iztiroblari” asaridagi tabiat tasvirlari haqida	275
Nurova F.K.	O‘zbek tili imkoniyatlari (fe’lning analitik shakllari misolida)	279
O’sarov I.K.	Tarjimaning stilistik muammolari	284
Mamurov Q., Tilakova N.	Tarjimaning linguistik birliliklari va ularni tadqiq qilish yunalishlari (Uzbek va Ingliz tili materiallari asosida)	292
Safayeva M.O.	The role of title-intertext in literary texts	302
Tadjibayeva M.A.	Pragmatic aspect of translation	305
Toshxonov L.T.	Ingliz tilida birlamchi va ikkilamchi inkor muammozi	310
Toshxonov L.T.	Verbal inkor umumiyl tilshunoslikning predmeti sifatida	315
Абдувахабова Д.Н.	Лингвистические аспекты перевода художественной литературы	320
Ёқубов Ж.	Бадий таржиманинг ўзига хос муаммолари	324
Жумаева Д.Б.	Антрапонимларнинг лингвистик ва маданий хусусиятлари	333
Кулбаева С.С. Хакимова Ф. Н.	Прагматические аспекты перевода реалий	336
Латипов О.Ж.	Выявление аналогий как один из успешных методов осуществления перевода (на примере зоонимической лексики)	340
Сиддикова И.А.	Проблемы перевода контекстуальных синонимов	344
Хакимова Ш.Р. Хакимова Ф.Н.	Бадий таржимада лексик бирликлар муаммоси	349

ТАРЖИМА НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЁТИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ